

**BO'LAJAK MUHANDISLAR KASBIY IDENTIFIKATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI****Nazarova Marg'uba Gulamovna****Olmalik davlat texnika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar"****kafedrasi katta o'qituvchi****E-mail: nazarovamarguba85@gmail.com Tel: +998935926176****ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-1942-9423>****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20732556>****Annotatsiya**

Maqolada bo'lajak muhandislar kasbiy identifikatsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Xususan, oilaviy tarbiya, oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy muhiti hamda tengdoshlar guruhining talabalarning kasbiy o'zligini anglash, kasbiy qadriyatlarni qabul qilish va muhandislik kasbiga mansublik hissini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan hamda bo'lajak muhandislarda barqaror kasbiy identifikatsiyani shakllantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy identifikatsiya, bo'lajak muhandislar, ijtimoiy-psixologik omillar, oilaviy tarbiya, oliy ta'lim muhiti, tengdoshlar guruhi, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, muhandislik ta'limi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida muhandis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak muhandislarning kasbiy identifikatsiyasi – bu nafaqat ularning mutaxassislik bilimlarini o'zlashtirish jarayoni, balki o'zini ma'lum bir kasbiy guruh vakili sifatida anglash, kasbiy qadriyatlar va me'yorlarni ichki qabul qilish, hamda kelajakdagi faoliyatiga nisbatan barqaror munosabatni shakllantirishning murakkab ijtimoiy-psixologik jarayonidir. Ushbu jarayonga turli xil omillar, jumladan, oila, ta'lim muhiti va tengdoshlar guruhi bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bo'limda aynan shu uchta asosiy ijtimoiy institutning bo'lajak muhandislar kasbiy identifikatsiyasining shakllanishiga ta'siri chuqur ilmiy-nazariy tahlil qilinadi.

Oilaviy tarbiya va uning kasbiy qadriyatlarga ta'siri masalasiga yondashganda, avvalambor, oilaning jamiyatdagi o'rni va uning shaxs kamolotidagi ahamiyatini belgilash lozim. Oila nafaqat jamiyatning asosiy birligi, balki shaxsning ilk ijtimoiylashuv bosqichi bo'lib, aynan shu bosqichda bolaning mehnatga, kasbga va umuman, faoliyatning turli turlariga nisbatan asosiy munosabati shakllana boshlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning kasbi, ularning mehnatga munosabati va oilada hukm surayotgan qadriyatlar tizimi farzandning kelajakdagi kasb tanlashiga, shu jumladan, muhandislik sohasiga qiziqishining paydo bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharqona qadriyatlariga asoslangan an'anaviy oila modelida farzandning kelajagi haqida qayg'urish, unga munosib ta'lim va tarbiya berish ota-onaning muqaddas burchi hisoblanadi. Aynan oilada shakllangan mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, aniq fanlarga qiziqish kabi fazilatlar bo'lajak muhandisning kasbiy rivojlanishiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Oilaviy tarbiyaning ta'sir mexanizmlari haqida so'z yuritganda, psixologik nuqtai nazardan identifikatsiya – bu insonning o'zi uchun muhim bo'lgan shaxslar yoki guruhlarining xulq-atvori, qadriyatlari va fazilatlarini ongli yoki ongsiz ravishda o'zlashtirish jarayonidir. Bolalik va o'smirlik

davrida bu identifikatsiya obyekti ko'pincha ota-ona bo'ladi. Agar ota-ona muhandis bo'lsa yoki o'z kasbiga mehr bilan qarasa, farzand ham ongsiz ravishda aynan shu kasb modeliga qiziqish bildirishi mumkin. Jumladan, S.S. Selivanovanning ta'kidlashicha, kasbiy identifikatsiya shaxsning ma'lum bir kasb vakili sifatida o'zini o'zi anglashi, kasbiy guruhga mansublik hissini o'zlashtirilgan faoliyatda shaxsiy mazmuni izlash natijasidir. Bu jarayonda oilaning roli beqiyos, chunki oilada kasbiy faoliyatning mazmuni va ahamiyati haqidagi dastlabki, ko'pincha emotsional jihatdan boyitilgan ma'lumotlar shakllanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, oilaviy ta'sir har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Ba'zi hollarda ota-onaning farzandga o'z orzularini yuklashi, uning qobiliyati va qiziqishlarini e'tiborsiz qoldirishi, aksincha, kelajakda kasbiy tanglik yoki noto'g'ri tanlangan kasbga nisbatan norozilikka sabab bo'lishi mumkin. Tanqidiy jihatdan qaralganda, bugungi kunda o'zbek oilalarida ko'plab ota-onalar farzandining shaxsiy qiziqishlaridan ko'ra, uning nufuzli (ko'pincha iqtisodiy, huquqiy yoki tibbiyot) kasb egalari bo'lishini afzal ko'rishmoqda. Bu esa muhandislik kabi murakkab va kreativ fikrlashni talab qiluvchi sohalarga bo'lgan qiziqni nisbatan pasaytirishi mumkin. Shuning uchun ham oilaviy tarbiyada farzandning qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda, uni kasbga yo'naltirish yanada samarali hisoblanadi.

Bo'lajak muhandislar kasbiy identifikatsiyasining shakllanishida oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy muhiti alohida o'rin tutadi. Universitet muhiti - bu nafaqat bilim olish maskani, balki ma'lum bir kasbiy subkulturaga kirish, uning me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirish makonidir. Oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy muhiti tushunchasiga o'quv jarayonining tashkil etilishi, professor-o'qituvchilarning kasbiy mahorati va ularning talabalar bilan munosabati, moddiy-texnik baza, ijtimoiy va madaniy tadbirlar, ilmiy to'garaklar va loyihalardagi ishtirok imkoniyatlari kiradi. Zamonaviy O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalar ijrosi, ta'lim muhitini modernizatsiya qilish, uni raqamlashtirish va talabalarning mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan. Bu esa muhandislik ta'limi sifatiga va natijada, talabalarning kasbiy identifikatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Innovatsion muhandislik faoliyatining rivojlanishi, mehnat bozorining talablari o'zgarishi bilan birga, bo'lajak muhandislardan nafaqat texnik bilim, balki ijodiy fikrlash, loyihalash ko'nikmalari va jamoada ishlash qobiliyati talab etilmoqda. Oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy muhiti aynan shu talablarga javob beradigan shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Qulay va rag'batlantiruvchi ijtimoiy-psixologik muhit talabada o'z universitetiga, fakultetiga va tanlangan kasbga nisbatan ijobiy his-tuyg'ularni kuchaytiradi. Bu esa uning «biz muhandislar» degan guruhiiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy identifikatsiya darajasi yuqori bo'lgan talabalar o'z o'qishlariga va kelajakdagi ish faoliyatiga nisbatan ko'proq sadoqat ko'rsatadilar, ular o'zlarini nafaqat ish bajaruvchi, balki kasb egalari sifatida namoyon etadilar. Boshqacha aytganda, universitet muhiti muhandislik kasbining ramziy maydoni bo'lib, unda talabalar o'zlarining kasbiy kapitalini (bilim, ko'nikma, aloqalar) shakllantiradilar va o'zlarini ushbu maydonning haqiqiy ishtirokchilari sifatida his qila boshlaydilar.

Kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishida tengdoshlar guruhi va akademik guruhning ta'sirini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. O'smirlik va yoshlik davrida tengdoshlar bilan muloqot yetakchi faoliyat turlaridan biriga aylanadi. Oliy ta'lim muassasasida talabaning bevosita ijtimoiy muhiti - bu uning akademik guruhidir. Aynan shu guruhda talaba o'zini boshqalar bilan taqqoslaydi, o'zaro baho va fikr almashadi, birgalikdagi faoliyat (loyiha ishlari, laboratoriya mashg'ulotlari) orqali

kasbiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tengdoshlarning kasbga nisbatan munosabati, ularning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi, o'zaro yordami yoki raqobati alohida talabning kasbiy identifikatsiyasiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Masalan, agar guruhda muhandislik kasbining nufuzi past baholansa yoki o'qishdan ko'ngil to'qligi hukmron kayfiyat bo'lsa, bu salbiy munosabat boshqa talabalarga ham tezda yuqishi mumkin. Aksincha, ilmiy to'garaklarda faol ishtirok etuvchi, muhandislik loyihalarida muvaffaqiyat qozonayotgan tengdoshlarning ijobiy tajribasi qolganlar uchun o'rnak bo'lib, ularning ham kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. F.M. Qurbonova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, talabalarning kasbiy identifikatsiyasi rivojlanishida shakllangan stereotiplarga moyillik, professional ta'lim jarayonidagi identifikatsiyani "moratoriy" (ya'ni tanlov inqirozi) holatiga olib kelishi mumkin.¹ Bu esa aynan tengdoshlar va kengroq ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni, masalan, kasbga bo'lgan romantik qarashlar bilan real ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Demak, bo'lajak muhandislar kasbiy identifikatsiyasiga oila, oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy muhiti va tengdoshlar guruhi kuchli va o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. Oila dastlabki qadriyat va motivatsiyalarni shakllantirsa, universitet muhiti kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashning asosiy maydonini yaratadi, tengdoshlar guruhi esa bu jarayonda ijtimoiy taqqoslash, qo'llab-quvvatlash va ta'sir o'tkazish vazifasini bajaradi. Mana shu uchala omilning uyg'unligi muhandislik kasbga bo'lgan barqaror va ijobiy identifikatsiyaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak muhandislar kasbiy identifikatsiyasining shakllanishi ko'p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda oila, oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy muhiti va tengdoshlar guruhi muhim o'rin tutadi hamda ularning ta'siri o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti sifatida mehnatga munosabat, kasbiy qadriyatlar, mas'uliyat hissi va kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning kasbiy qarashlari va tarbiyaviy yondashuvlari bo'lajak muhandisning kasbiy o'zligini anglashi hamda kasbiy identifikatsiyasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy-psixologik muhiti talabalar tomonidan kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallash bilan bir qatorda, ularda muhandislik kasbga mansublik hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Qulay ta'lim muhiti, professor-o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlovchi munosabati va innovatsion ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi kasbiy identifikatsiyaning mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tengdoshlar va akademik guruh talabning kasbiy rivojlanishida muhim ijtimoiy ta'sir manbai hisoblanadi. Guruhdagi ijobiy munosabatlar, hamkorlik va kasbiy faollik muhiti talabalar orasida muhandislik kasbga nisbatan ijobiy munosabat hamda kasbiy o'zlikni anglash darajasini oshiradi.

Demak, bo'lajak muhandislar kasbiy identifikatsiyasining muvaffaqiyatli shakllanishi oiladagi tarbiya, oliy ta'lim muassasasidagi ijtimoiy muhit va tengdoshlar guruhining o'zaro uyg'un hamda maqsadli ta'siriga bog'liqdir. Mazkur omillarning samarali integratsiyasi

talabalarda kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy qadriyatlarni qabul qilish va muhandislik faoliyatiga sadoqatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar

1. Bo'lajak muhandislar kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishda oilaviy muhitning ijobiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ota-onalarda farzandlarning kasbiy qiziqishlari va individual qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan psixologik-pedagogik madaniyatni rivojlantirish zarur.
2. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlovchi ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish hamda professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.
3. Akademik guruhlarda konstruktiv muloqot, o'zaro qo'llab-quvvatlash va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish orqali tengdoshlar guruhining ijobiy ta'siridan samarali foydalanish lozim.
4. Talabalarni ilmiy loyihalar, innovatsion faoliyat va kasbiy tanlovlarga jalb qilish orqali ularda muhandislik kasbiga mansublik hissi hamda kasbiy identifikatsiya darajasini oshirish zarur.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi bo'lajak muhandislarda barqaror kasbiy identifikatsiyani shakllantirish, ularning kasbiy motivatsiyasi, raqobatbardoshligi va kelajakdagi professional faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 240 b.
3. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva: Akademiya, 2010. – 304 s.
4. Shneyder L.B. Professionalnaya identichnost: teoriya, eksperiment, trening. – Moskva: MPSI, 2004. – 600 s.
5. Selivanova S.S. Professionalnaya identichnost lichnosti: teoreticheskiye podxody i osobennosti formirovaniya. – Moskva, 2017.
6. Qurbanova F.M. Talabalar kasbiy identifikatsiyasining psixologik xususiyatlari va rivojlanish omillari // Psixologiya ilmiy jurnali. – Toshkent, 2021.
7. Erikson E.H. Erik Erikson Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1968.